

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Xojimamatov</b>	
Globallashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni .....	442
<b>B.S.Sobirov</b>	
Aktyorlik faoliyatini shaklantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari .....	448
<b>D.A.Yuldasheva</b>	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi .....	451
<b>I.I.Qirg'izov</b>	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi .....	455
<b>I.T.Yuldashev</b>	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atinig o'mni va ahamiyati .....	459
<b>L.E.Tursunova</b>	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari .....	462
<b>M.Achilidiyeva</b>	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari .....	468
<b>N.X.Djalalova</b>	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida ...	473
<b>N.R.Mansurova</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari .....	478
<b>O.R.Soliyev</b>	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi .....	488
<b>R.A.Orziboyev</b>	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili .....	491
<b>R.J.Soxibov</b>	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi .....	495
<b>A.B.Sulaymanova</b>	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics .....	500
<b>U.T.Isakov</b>	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi .....	503
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviri san'atning o'rni .....	508
<b>J.Sh.Muydinov</b>	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati .....	511
<b>N.M.Madaminov</b>	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviri san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati .....	515
<b>M.T.Yunusaliyev</b>	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv .....	518
<b>D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari .....	524
<b>D.K.Rafikova</b>	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati .....	528
<b>S.H.Mamajonov</b>	
Amir Temur mohir strategik .....	533
<b>D.M.Xolikova</b>	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	536
<b>O.S.Usmonova</b>	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish .....	544



UO'K 37.026.(091)(58)

## NAQQOSHLIKDA KOMPOZITSIYA VA UNING QO'LLANILISHI

## КОМПОЗИЦИЯ И ЕЕ ПРИМЕНЕНИЕ В ЖИВОПИСИ

## COMPOSITION AND ITS APPLICATION IN PAINTING

Soxibov Raxmonali Jumadilayevich 

Farg'onan davlat universiteti Tasviriy san'at kafedrasiga katta o'qituvchi

## Annotatsiya

Ushbu maqolada amaliy san'atning naqqoshlik san'ati va uning turi haqida, naqqoshlikda qo'llaniladigan kompozitsiyalar, kompozitsion sxemalar haqida, naqsh kompozitsiyasi tuzish qonuniyatlan va ularga amal qilish talablari haqida fikr yuritigan, naqqoshlik atamalariga izohlar berilgan. O'zbek ustalarining yaratgan asarlar zamirida olamni uning butun nafosati bilan chiqur his etish, inson ichki dunyosini bilish va xalqning serqirra iste'dodli samaralaridan bahramand bo'lish g'oyalari yotadi. Chinakam san'at ustasi bo'lgan odamgina mana shunday asarlar yaratishi va shunday asarlarga yangi yangi san'at ustalarini tarbiyalashni mumkin. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida amaliy san'atning shunday ajoyib namunalarini yaratgan va yaratmoqdaki, ular o'zlarining yuksak badiiy mahorat va nazokat bilan ijro etishlari bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqda. Ko'p yillik tajribalar, o'lmas iste'dod va xalq tafakkuri bilan yo'g'rilgan har bir chinakam san'at asari ranglar sehr-jodusi bilan qalbimizga ilhom bag'ishlab, ma'naviy dunyomizni yanada boyitadi. Xalq amaliy san'atining barcha turlarida naqqoshlikning sodda va murakkab turlaridan foydalaniib, har xil yo'llar bilan kompozitsiyalar ishlanaadi. Masalan, o'yib, chizib, tirkab, zarb bilan, tikib, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Dunyoning qaysi bir joyiga bormang, o'sha xalqga xos, o'sha o'lkanning tabiatiga, geografik o'miga mos, o'simliklar dunyosiga ko'ra shakllangan naqsh kompozitsiyalarini uchratasiz.

## Аннотация

В данной статье рассматривается искусство прикладного искусства и его виды, композиции, используемые в живописи, композиционные схемы, законы создания узорной композиции и требования к их соблюдению, комментируются термины живописи. В основе произведений, созданных узбекскими мастерами, лежат идеи глубокого прочувствования мира во всей его утонченности, познания внутреннего мира человека и наслаждения плодами блестящего таланта народа. Только человек, являющийся истинным мастером искусства, может создавать такие произведения и только такие произведения могут воспитывать новых мастеров искусства. За две тысячи лет узбекский народ создал и продолжает создавать такие замечательные образцы прикладного искусства, которые и сегодня поражают людей своим высоким художественным мастерством и деликатностью. Каждое настоящее произведение искусства, созданное с учетом многолетнего опыта, бессмертного таланта и народного мышления, вдохновляет наши сердца волшебством красок и обогащает наш духовный мир. Во всех видах народного творчества композиции разрабатываются по-разному с использованием простых и сложных видов росписи. Например, узоры изготавливаются гравировкой, рисунком, царапинами, татуировкой, шитьем, булавками и другими методами. Куда бы вы ни отправились в мире, вы найдете композиции узоров, характерных для этого народа, подходящих к природе этой страны, географическому положению, сформированные согласно миру растений.

## Abstract

This article discusses the art of applied art and its types, the compositions used in painting, compositional schemes, the laws of creating a pattern composition and the requirements to follow them, comments on the terms of painting. At the heart of the works created by Uzbek masters are the ideas of deeply feeling the world with all its sophistication, knowing the inner world of a person and enjoying the fruits of the people's brilliant talent. Only a person who is a true master of art can create such works and only such works can educate new masters of art. For two thousand years, the Uzbek people have created and continue to create such wonderful examples of applied art that they amaze people even today with their high artistic skill and delicacy. Each true work of art, made with many years of experience, immortal talent and folk thinking, inspires our hearts with the magic of colors and enriches our spiritual world. In all types of folk art, compositions are worked out in different ways using simple and complex types of painting. For example, patterns are made by engraving, drawing, scratching, tattooing, sewing, pinning, and other methods. No matter where you go in the world, you will find compositions of patterns that are characteristic of that nation, suitable for the nature of that country, geographical location, formed according to the world of plants.

**Kalit so'zlar:** diqqat, shakl, sirt, nisbat, yakka band, qo'sh band, bodom, paxta gul, yaxlit, kompozitsiya, reyshina, transportir, pargor, ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, dinamik, stilizatsiya, mujassamot, raftor, yak raftor, qo'sh raftor, patnisgul, qo'sh mehrob, kurtak, komponent.

**Ключевые слова:** Внимание, форма, поверхность, пропорция, одиночная полоса, двойная полоса, миндаль, цветок хлопка, общий, композиция, рейшина, транспортер, парегор, ритм, симметрия, асимметрия, компановка, распределение, периодическое повторение, динамика, стилизация, воплощение, стропила, одинарное стропило, двойное стропило, поток, двойной алтарь, бутон, компонент.

**Key words:** Attention, form, surface, proportion, single band, double band, almond, cotton flower, overall, composition, reyshina, transporter, pregor, rhythm, symmetry, asymmetry, companovka, distribution, periodic repetition, dynamic, stylization, embodiment, rafter, single rafter, double rafter, tray, double altar, bud, component.

*"Kompozitsiya - qonuniy tashkil qilingan organizm, uning hamma qismlari mustahkam aloqada va o'zaro bog'iqlikda. Bualoqa va ozaro bogliqlik xususiyati rassomning goyaviy fikr bilan belgilanadi. Fikr mohiyatiga xos bo'lgan konstruktiv g'oya kompozitsiyaning amaliy asosini beradi."*

Y.A.Kibrik.

## KIRISH

Barcha san'at turlarida bo'lgani kabi amaliy san'atda ham o'ziga hos kompozitsiya bo'ladi. Mavjud naqsh elementlarini ma'lum qonun-qoidaga amal qilgan holda joylashtirib chiqish, ya'ni kompozitsiya tuzish o'ziga hos bilim va malaka talab qiladi. Masalan, birligina "bodom", "paxta gul" shakllaridan amaliy san'atning barcha turlarida o'ziga hos kompozitsiya yaratish mumkin. Xo'sh, amaliy san'atda qanday qonun-qoida bo'lishi mumkin? Qadimdan ustalar qo'llab kelayotgan naqshlar tabiatning shartli tasviri hisoblanib, barcha qonun-qoidalari ham undan olingan." O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadi. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyiladi. Lekin, navdada barglar bo'lib, bir xil yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshlarda ham o'z aksini topgan. Usta chizadigan naqsh faqat qog'oz yuzini to'ldirish uchun emas, balki ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariiga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iborat."

## ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Kompozitsiya so'zi lotincha "composito" so'zidan olingan bo'lib, "tuzaman", "yasayman" degan ma'nolarni anglatadi. Naqqoshlikda kompozitsiya tuzish tanlangan naqsh namunasiga ko'ra naqsh elementlarini qog'oz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashtirib, yaxlit kompozitsiya tuzish bilan amalga oshiriladi.

Kompozitsiyaning qurilishi ma'lum ob'yektning vazifasi va mazmuniga, undan ko'zlangan maqsadga bog'liq bo'ladi. Kompozitsiyaning asosiy sxemasi quyidagicha:

**Gorizontal kompozitsiya** – bunda kompozitsiya elementlarini gorizontal yuzaga joylashtiriladi, masalan, dala, shahar panoramasi va boshqalar.

**Vertikal kompozitsiya** – faol, harakatchan (dinamik) kompozitsiya bo'lib, yuqoriga o'sish, parvoz tasavvurini beradi, uning bo'laklari asosan tik chiziq bo'ylab joylashgan bo'ladi.

**Diogonal kompozitsiya** – uning qurilishi dinamik va shiddatli sxemalarga asoslangan bo'ladi.

**Uchburchak yoki piramidal kompozitsiya** – bunda turg'un, osoishta holatga tayaniлади. Surat yuzasining pastki qismi piramidaning asosi hisoblanadi.

Ixtiyorli tanlangan mavzu mazmuniga mos naqsh kompozitsiyasini tuzishda oldin ko'plab xomaki chizmalar, eskitilar ishlanadi va ular ichidan eng yaxshilarini tanlab olinadi. Naqsh kompozitsiyasini tuzishda elementlar o'rnni almashtrish, unga qo'shimcha elementlar kiritish bilan kompozitsiya mazmunini boyitish ham muxim ahamiyatga ega. Naqsh kompozitsiyasini tuzishda asosiy qonuniyatlarga rioya qilish lozim. Bular kompozitsiyaning bir butunligi, elementlar, shakllar, ranglarning takrorlanishi va ular o'rtaisdagi bog'liqlik, kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo'lgan rang tuslarining ma'lum bir koloritga bo'ysunganligidir.

Kompozitsiyada naqsh yaratishning shunday qoidasini simmetriya, asimetriya, ritm, kompozitsion markazni topish, stilizatsiya, muvozanat, elementlarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilishni tashkil qiladi va bunga qat'iy amal qilinadi.

Naqqoshlikda ko'proq quyidagilarga amal qilinadi:

1. Naqsh kompozitsiyasidagi chiziqlar harakatining stilistik birligiga erishish.
2. Simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini aniqlash.
3. Naqsh chizish jarayonida uning qismlari orasidagi mutanosiblik.
4. Naqsh elementlarning o'q chiziqqa nisbatan teng ko'lamda joylashuvi.
5. Rang tuslarining bir-biriga muvofiq ravishda naqsh sirtida yoyilishi.
6. Kompozitsiyada gullar, burglar, novda va shu kabilarni uzviy ritmik tarzda bog'lanishi.

## PEDAGOGIKA

Bundan tashqari, naqsh namunalarini tuzishda yana kompozitsiya tuzishning quyidagi asosiy qonun-qoidalariга rivoja qilinadi:

- chizilayotga naqsh kompozitsiyasida shakl, o'Icham va taqsimlarga etibor berish;
- kompozitsiyaning yakka yoki qo'sh banddan iborat bo'lishini inobatga olgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish;
- kompozitsiyaga novda, gul, barg, shobarg va boshqa elementlarni kiritib mukammallashtirish;
- naqsh bandini bofta, shukufa elementlari bilan bog'lab boyitish;
- kompozitsiyaning umumiy shaklini (ramkasi) umumlashtirish va uni nomlash;
- kompozitsiyaning ma'no-maqsadini hisobga olgan holda rang tuslarini aniqlash va boshqalar.

Naqsh kompozitsiyasini tuzish jarayonida simmetriya, asimmetriya, ritm, muvozanat, elementlarning o'zaro birikuvi, turlanishi singari qoidalarga amal qilish bilan birga, tabiat go'zalligini chuqur his etish, badiiy va ijodiy qobiliyatning rivojlanishi ham shakllanib boradi.

Shu orinda naqsh atamalariga izoh berib o'tsak o'rinni bo'ladi:

**Simmetriya** – o'zaro teng degan ma'noni anglatadi. Bunda naqsh elementlari simmetriya o'q chizig'ining markazidan bir xil masofada joylashadi hamda bir butun yaxlit ko'rinishda chiziladi. Naqsh elementlarining simmetrik chizilishi – "rapport", naqsh bo'laklari va bo'linish joyi "taqsim" deyiladi.



**Ritm** – davriy takrorlanish. Yo'l simon naqshlar simmetrik rapport tarzda davriy takrorlanib keladi. Naqsh elementlarining ma'lum oraliqda va ma'lum tartibda uziliksiz tarzda takrorlanib kelishini bildiradi.



**Asimmetriya** – simmetriyaning teskarisi, bunda kompozitsiyadagi muvozanat qonuniyatiga amal qilinmaydi. Naqsh elementlaridagi harakat bir-biriga mutanosib bo'lmaydi. Naqsh elementlari markaz, o'q chizig'I kabi shartli belgilarga amal qilinmagan holda joylashtiriladi.



Asimmetrik naqshlar ko'proq navo qalam, vassa, tokcha, mavzuli pannolarda: majnuntol, anor, guldasta kabi kompozitsiyalarida uchraydi.

Xalq amaliy san'atining barcha turlarida biror bir yuza yoki buyum uchun chiziladigan dastlabki xomaki naqsh kompozitsiyasi "naqsh chizgilar" deb yuritiladi. Bu chizgilar xarakteri jihatidan rang va pardozsiz ishlangan shunchaki qoralama eskiz tarzida bo'ladi.

Tuzilgan kompozitsiyaning mazmunan boy, chiroyli tuzilishi, naqshning asosiy shakl chegarasi va ramkasiga ham bog'liq. Kompozitsiya tuzishda dastlab o'lcham aniqlangach, naqshning asosiy shakli ramkaga olinadi. Naqsh ramkalarini tuzishda elementlar ko'rinishini yo'il aylana, chorsi, va hokazo shakllar ichiga joylanadi.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu o'rinda uchburchak yoki piramidal kompozitsiya hususida to'xtalib o'tamiz. Bunda turg'un, osoyishta holatga tayaniladi. Su'rat yuzasining pastki qismi piramidaning negizi hisoblanadi. Badiiy bezash san'atidagi frontal kompozitsiyalarning muhim xususiyatlardan biri ularning yupqa yuza tarzida ijro etilishidir. Frontal kompozitsiya boshqa tur kompozitsiyalardan hajmni, masofa va kenglikni berishi bilan farqlanadi. Hajmli kompozitsiya turli ko'rish nuqtalaridan idrok qilishga mo'ljallangan uch o'lchovli shaklda bo'ladi. Asarlarning mazmuni va vazifasiga muvofiq kompozitsiyaning biror xususiyati bo'rttirilishi mumkin. Kompozitsiya o'z xususiyatlari bilan pirovard natijada badiiy bezash ishlarining yuksak badiiyligini ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Kompozitsiyalarning garmonik yaxlitligida ranglar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rang asosiy o'r'in tutadigan mozaik panno, vitrajlarda kompoziston garmoniyaga jiddiy qarash lozim. Shundagina asarning rang birligi estetik ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri bo'ladi. Kompozitsiya qonuniyatlaridan asossiz chetlashish odatda badiiy bezash ishlari mazmunini ham, estetik mohiyatini ham pasaytiradi. Agar kompozitsiya elementlari tomonlarda bir-biriga nisbatan bir xil joylashsa, ular kompoziston muvozanatda bo'ladi.

Kompozitsiyaning asosiy masalalaridan biri kombinatsiyadir. Kombinatsiya asosida bir va bir necha elementlarning joyini o'zgartirish orqali kompozitsiyaning yangidan-yangi ifodali variantlari tayyorlanadi. Dinamik va turg'un kompozitsiyalar ham o'z qonuniyatlariga ega. Bular o'rtasida qarama-qarshi ma'no kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, ya'ni asosiy va ikkinchi darajali elementlarning mantiqiy uyg'unligiga erishish lozim. Ritm qonuniyatlarini bilish ta'sirchan kompozitsiya tuzishda ritmik ko'rinishning harakterini to'g'ri tanlashga katta yordam beradi.

#### XULOSA

Xalq amaliy san'ati insoniyatning har jihatdan mukammal, erkin va go'zal jamiyat sari yo'lida un ga sadoqat bilan xizmat qilib, unga hamohang tarzda o'zi ham rivoj topgan. Inson ongi, ma'naviy-badiiy didi, ehtiyojlari o'sib, turmushi faollashib borgani sari uning ma'naviy talablarini qondirishi lozim bo'lgan xalq amaliy san'ati ham, uning mazmuni, badiiy ifoda vositalari ham boyib, behisob badiiy uslublar, oqimlar, turlar maydonga kelgan va rivojlangan.

**PEDAGOGIKA**

Xalq amaliy san'ati ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, zargarlik, zardo'zlik, kulolchilik, naqqoshlik kabi bir qancha turlarga ajraladi. Bu san'at turlarining barchasi o'zining uzoq tarixi va istiqboliga ega.

Amaliy san'at turlari o'ziga xos xususiyatlari ko'ra bir-biridan farq qilsa-da, lekin ro'zg'orda qo'llanilishiga ko'ra o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

O'zbek xalq amaliy san'ati insoniyat madaniyatida o'ziga xos muhim o'rinni egallaydi. O'zbek xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan yuksak san'at namunalari turli-tuman o'yma, to'qima naqshinkor buyumlar o'tmishda ham, hozir ham dunyoga mashhur bo'lib, jahonning turli shaharlaridagi amaliy san'at va etnografiya muzeylarida namoyish etilmoqda. Bularning hammasi biz-hozirgi avlodlar uchun benihoya huzurbaxsh faxr manbaidir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1 Qobil Qosimov. Naqqoshlik. Toshkent, "O'qituvchi" 1982 yil.
- 2 S.Bulatov. Xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent 1991 yil.
3. Raxmonali, S., Zulfiya, B., & Nodirbek, M. (2022). BADIY ASAR YARATISHDA KOMPOZITSIYANING XUSUSIYATLARI. *Research Focus*, 1(2), 284-288.
4. Sohibov, R. (2022). KOMPOZITSIYANING NAZARIY ASOSLARI KOMPOZITSIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 256-259.
5. Mimirjonovich, M. N., Jumadillayevich, S. R., & Anvarovich, M. A. (2021). The Role Of Historical Monuments In The Development Of Central Asian Architecture. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(02), 1-5.